

## KAPITAL BOZORI ISHTIROKCHILARINING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDAGI ROLI

PhD **Omonov Sardor O'lmasovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0000-0003-2679-6599  
[Sardoromonov7777@gmail.com](mailto:Sardoromonov7777@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi rolini o'rganishda yashil iqtisodiyotga o'tishda kapital bozorining o'rni, yashil moliyaviy instrumentlarning ahamiyati va turlari bo'yicha yondashuvlari o'rganilgan. Yashil investorlarning kapital bozoridagi roli, kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi funksiyalari va yashil obligatsiyalar turlarining xalqaro yashil obligatsiyalar bozoridagi ulushi tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kapital bozori, iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, yashil moliyaviy instrumentlar, yashil obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish, kapital bozori ishtirokchilar.

### РОЛЬ УЧАСТНИКОВ РЫНКА КАПИТАЛА В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ

PhD **Омонов Сардор Ўлмасович**  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль участников рынка капитала в переходе к зеленой экономике, роль рынка капитала в переходе к зеленой экономике, значение зеленых финансовых инструментов и подходы к их типам. Анализируется роль зеленых инвесторов на рынке капитала, функции участников рынка капитала при переходе к зеленой экономике, а также доля зеленых облигаций по типам на международном рынке зеленых облигаций. На основании проведенного анализа были сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** рынок капитала, экономика, зеленая экономика, зеленые финансовые инструменты, зеленые облигации, зеленое финансирование, участники рынка капитала.

### THE ROLE OF CAPITAL MARKET PARTICIPANTS IN THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

PhD **Omonov Sardor Ulmasovich**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article studies the role of capital market participants in the transition to a green economy, the role of the capital market in the transition to a green economy, the importance of green financial instruments and their approaches to types. The role of green investors in the capital market, the functions of capital market participants in the transition to a green economy, and the share of green bonds in the international green bond market by type are analyzed. Based on the analysis, relevant conclusions are given.

**Keywords:** capital market, economy, green economy, green financial instruments, green bonds, green financing, capital market participants.

### Kirish.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot konsepsiysi aksariyat mamlakatlar uchun ustuvorlik kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ekologik va iqtisodiy-moliyaviy barqarorlikni birlashtirishni maqsad qiladi. Mazkur jarayonda kapital bozori muhim rol o'ynamoqda, chunki u iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni himoya qilishni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ta'minlashda kapital bozori xususiy va davlat sektorlarini birlashtirib barqaror iqtisodiy tizimni yaratishga yordam bermoqda. Yashil obligatsiyalar, ko'k obligatsiyalar, yashil fondlar kabi moliyaviy instrumentlar investorlarni ekologik loyihalarga investitsiya kiritishga undaydi. Shuningdek, kapital bozori ekologik risklarni baholash va yashil iqtisodiyotning istiqbollarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali kapital bozori ishtirokchilari moliyaviy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shamoqda. Bunday investitsiyalarni rag'batlantirish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda kapital bozori ishtirokchilarining o'rni tobora oshib bormoqda. Mazkur jihatlarga erishishning samarali yo'llarini shakllantirish masalalari kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi rolini o'rganish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish ko'p jihatdan kapital bozorining turli ishtirokchilari, jumladan, investorlar, korxonalar va tartibga soluvchi organlar faoliyati hamda ularning rivojlanish strategiyalariga bog'liq. Ayniqsa, barqaror moliyalashtirish va investitsiya strategiyalari doirasida bu ishtirokchilar ekologik barqarorlik maqsadlariga mos keladigan boshqaruv tizimi va rag'batlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda barqaror moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati ta'kidlanmoqda. Bu holat moliya bozorlari rivojlanishi va yashil iqtisodiyotga o'tish siyosatiga bag'ishlangan izlanishlarda o'z aksini topmoqda. Naqvi va boshqalar (2023) "moliya bozorlarini rivojlantirish G7 mamlakatlari iqtisodiyoti uchun muvaffaqiyatli yashil o'tishni rag'batlantiruvchi hal qiluvchi siyosat tanloviga aylanishi mumkinlig'i"ni ta'kidlashadi. Mualliflar kuchli bozor tuzilmalari resurslarni barqaror loyihalarga yanada samaraliroq taqsimlash imkonini berishini aniqlashgan.

"Yashil va ko'k obligatsiyalar kabi barqaror moliyaviy instrumentlar nafaqat investitsiyalarni jalb qiladigan, balki emitentlarning uzoq muddatli ekologik mas'uliyatga sodiqligini ko'rsatadigan vositalar sifatida namoyon bo'lmoqda" (Sartzetakis, 2021). Ushbu moliyaviy vositalardan foydalanib, kompaniyalar chiqindilarni kamaytirish va global barqarorlikka hissa qo'shadigan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larni jalb qilishlari mumkin.

Iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari sifatida kompaniyalar o'z faoliyat strategiyalarini tobora ko'proq barqarorlik maqsadlariga moslashtirmoqda. Bu uyg'unlik yashil iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq murakkab muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan yashil texnologiyalar va amaliyotlarni joriy etishda namoyon bo'lmoqda. Soderholm (2020) "barqarorlikka erishish yo'lidagi texnologik o'zgarishlar keltirib chiqaradigan ichki qiyinchiliklarni ta'kidlab, bu jarayonning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun yetarli darajada moliyalashtirilishi zarurligi" ni qayd etadi. Yashil amaliyotlarni samarali joriy etgan kompaniyalar nafaqat ekologik maqsadlarga hissa qo'shadi, balki kapital bozorlarida o'z raqobatbardoshligini oshiradi va shu tariqa mas'uliyatli investorlarni jalb qiladi.

Investorlar barqaror moliyalashtirishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki ularning qarorlari biznes xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yashil investitsiyalarga bo'lgan qiziqishning ortib borishi qisman iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni tushunishning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan investorlar kayfiyatidagi o'zgarishni aks ettiradi. Yan va Haroon (2023) resurs bozorlarida moliyaviy safarbarlikning samaradorligini ta'kidlab, yashil tiklanishga erishish uchun xususiy va davlat kapitali

zarurligini uqtiradi. Ularning fikricha, "moliya bozorlari nafaqat kapital ta'minoti uchun mas'ul, balki turli aktivlarning ekologik ko'rsatkichlarini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi". Investorlar boshchiligidagi bu harakat barqaror investitsiya rahnamolarini faol targ'ib qilish orqali kuchayadi, bu esa kompaniyalarni manfaatdor tomonlarning o'zgaruvchan talablarini qondirish uchun zarur o'zgarishlarni amalga oshirishga undaydi.

Barqaror moliyalashtirish uchun kapital bozori sharoitida tartibga soluvchi tashkilotlarning rolini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Nazorat qiluvchi organlar yashil moliyaviy instrumentlarning samaradorligini oshirish uchun yo'l-yo'riq va ko'mak berishlari lozim. Zhao va boshqalar (2022) "yashil obligatsiyalarni iqtisodiy tiklanish va energiya samaradorligiga investitsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim vosita sifatida ko'rsatib, bunday vositalar uchun qulay muhit yaratadigan qo'llab-quvvatlash siyosatining ahamiyati" ni ta'kidlagan. Tartibga solish sohasidagi aniqlik investorlar ishonchini mustahkamlash uchun muhimdir, bu esa o'z navbatida yashil investitsiyalarda kengroq ishtiroy etishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, tartibga solish harakatlarining samaradorligini kompaniyalarni atrof-muhit masalalarini o'z biznes modellariga singdirishga va shu tariqa ularning faoliyat strategiyalarini keng qamrovli barqarorlik maqsadlariga moslashtirish orqali kuzatish mumkin.

Liu va boshqalar (2020) yashil moliya va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi muvofiqlashtirishni o'rjanib, to'liq siyosatlar barqaror rivojlanishga qanday olib kelishi mumkinligini ko'rsatishgan. Ular davlat boshqaruvchilaridan tortib xususiy investorlargacha bo'lgan kapital bozorlaridagi turli manfaatdor tomonlarning hissalarini birlashtiradigan yaxlit strategiyalar zarurligini ta'kidlashgan. Ushbu hamkorlik ekologik barqarorlikka moslashtirilgan innovatsion moliyalashtirish usullari uchun unumdon maydon yaratib, yashil maqsadlarga erishishda kapital bozorining aralash ishtiroyi samaradorligini namoyish etadi.

Batrancea va boshqalar (2021) tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqot yashil iqtisodiyotga o'tish moliyaviy ekotizimning turli manfaatdor tomonlari o'rtasida aniq asoslar va hamkorlikni talab qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, "barqaror moliyalashtirish amaliyotlarini butun investitsiya zanjiri bo'ylab javobgarlik va hisobotning samarali mexanizmlari bilan muvofiqlashtirishni takomillashtirish uchun katta imkoniyat mavjud. Bu investorlar va tadbirkorlar uchun shaffoflikni ta'minlaydi, faol korxonalarining biznesiga ishonch uyg'otadi va investorlarning ishonchini oshiradi".

Shuningdek, investorlarning barqaror moliyalashtirishga qiziqishini uyg'otadigan turli xil sabablarni tushunish juda muhimdir. Ning va boshqalar (2023) "yashil obligatsiyalarni barqaror moliyalashtirish strategiyalarining yangi omili sifatida taqdim etib, ular nafaqat kompaniyalarga energiya samaradorligi nuqtai nazaridan investitsiyalar kiritishga, balki umumiyligi o'sishni rag'batlantirishga yordam berishi"ni ta'kidlashgan. Investorlar barqaror daromad hamda moliyaviy va ekologik maqsadlarni birlashtirmoqda. Ushbu tendensiya barqaror moliyalashtirish bir vaqtning o'zida iqtisodiy farovonlik va atrof-muhitni muhofaza qilish dvigatecli sifatida harakat qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Erkinov va Kadirov (2023) fikricha, "yashil iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va investitsiyalarni oshirish bilan bir vaqtida atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integratsiya sifatini yaxshilash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo'naltirish zarur bo'ladi".

Raxmonqulova (2024) esa "bugungi kun amaliyotida yashil iqtisodiyotga o'tishda yashil kreditlardan tashqari yashil moliyalashtirishning boshqa ko'plab instrumentlari ham qo'llanilmoqda. Jumladan, yashil va ko'k obligatsiyalar, yashil sug'urta, yashil fondlar, yashil sukuk kabilalar" shular jumlasidan ekanligini qayd etgan.

Yuqoridagilar asosida ta'kidlash lozimki, kapital bozori ishtiroychilari, jumladan, investorlar, emitentlar, moliyaviy vositachilar va tartibga soluvchilarning umumiyligi ishtiroyi yashil iqtisodiyotga o'tishni osonlashtiradigan barqaror investitsiya strategiyalarini


shakllantirishda hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlar orqali kapital jalb qilish imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi rolini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalilanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda kapital bozorining moliyaviy instrumentlari muhim rol o'ynaydi, chunki ular ekologik barqarorlikka erishishda zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni ta'minlashga yordam beradi. Birinchi navbatda, yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar orqali davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalar ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kapitalni jalb qilishlari mumkin. Ushbu obligatsiyalar investorlarni iqlimni himoya qilish va ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashishga investitsiya kiritishga undaydi. Yashil obligatsiyalarni ishlatish imkoniyatlari yashil iqtisodiyotga o'tishda katta ahamiyatga ega, chunki ular yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan kapitalni ta'minlashga yordam beradi. Yashil obligatsiyalar orqali iqlimni himoya qilish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu obligatsiyalar davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalar uchun ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar ajratadi.




**1-rasm. Yashil investorlarning kapital bozoridagi roli**

**Manba:** muallif ishlansasi.

Yashil obligatsiyalarni chiqarish orqali investorlarga barqaror va ekologik mas'uliyatli loyihalarga investitsiya kiritish imkoniyati beriladi. Shuningdek, bu obligatsiyalar orqali ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashishda moliyaviy yordam olish mumkin. Kapital bozorida yashil obligatsiyalarni chiqarish, ekologik barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi va ularning samarali ishlashi uchun monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Yashil obligatsiyalarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularning foydalari va ijtimoiy ta'sirini baholash muhim ahamiyatga ega. Yashil obligatsiyalarni ishlab chiqish jarayonida shaffoflik va ishonchli

hisobotlar tizimi yaratish investorlarning ishonchini oshiradi. Yashil obligatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari davlatlar va xususiy sektordagi kompaniyalarni ekologik mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Shuningdek, davlatlar tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali yashil obligatsiyalarga investitsiya kiritish jozibador bo'ladi. Yashil obligatsiyalar orqali yangi energiya texnologiyalarini joriy etish va atrof-muhitni himoya qilishda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ular, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan ko'plab investitsiyalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Yashil obligatsiyalarni chiqarish, ayniqsa, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda davlatlar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Yashil obligatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni himoya qilishni birlashtirish mumkin. Yashil obligatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy institutlar va banklar uchun yangi biznes imkoniyatlari yaratadi. Bu obligatsiyalarni ishlab chiqish jarayonida innovatsion yondashuvlar, masalan, davlat-xususiy sherikliklar va hamkorlik, investitsiya kiritishni oshiradi. Yashil obligatsiyalarni chiqarish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan ekologik loyihamalarni amalga oshiriladi. Bularning barchasi yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim qadamlar hisoblanadi.

Yashil investorlar kapital bozoriga ekologik barqarorlik tamoyillarini olib kiradi. Ular yashil obligatsiyalar va ESG fondlari orqali barqaror moliyalashtirish manbalarini yaratadi. Bu esa investorlar iqlim o'zgarishiga moslashgan kompaniyalar rivojlanishiga ko'maklashadi. Ularning investitsiyalari bozor ishtirokchilarini ekologik innovatsiyalarga yo'naltiradi. Yashil investorlar ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan investitsiya faoliyatini olib boruvchi investorlardir. Ular atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihamalarni yashil texnologiyalar va barqaror rivojlanishga harakat qilayotgan kompaniyalarga kapitalni yo'naltiradi. Yashil investorlarning kapital bozoridagi roli bir qator jihatlarda namoyon bo'ladi (1-rasm).



## 2-rasm. Kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi funksiyalari

*Manba: muallif ishlansasi.*

Kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi funksiyalari turli darajadagi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi (2-rasm). Regulyatorlar barqarorlik standartlari va qoidalarini belgilaydi. Moliyaviy institutlar ekologik moliyalashtirish xizmatlarini taqdim etadi. Hukumatlar yashil siyosatni ishlab chiqib, imtiyozli soliq tizimlarini joriy qiladi. Kompaniyalar barqaror biznes modellar va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqadi. Shuningdek, ular yashil moliyaviy instrumentlar emissiyasini amalga oshiradi. Investorlar ushbu moliyaviy instrumentlarga investitsiya kiritadi. Ushbu jarayon kapital bozorining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi muhim o'rnini belgilaydi. Barcha ishtirokchilar o'zaro hamkorlik qilishi zarur. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning kalitidir. Shu sababli, ushbu funksiyalar izchil amalga oshirilishi lozim.


Ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishslash, yashil transport kabi sohalarga investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Barqaror investitsiya fondlari yaratish esa yashil obligatsiyalar va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos keladigan fondlar orqali kapital bozorida faoliyat yuritishni ta'minlashga xizmat qiladi. Risklarni kamaytirish ekologik risklarni inobatga olgan holda uzoq muddatli foyda olishni ko'zlagan holda investitsiyalarni boshqarish masalalarini inobatga oladi. Yashil investitsiya vositalari barqaror iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shami. Ular atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni kamaytirishga yo'naltirilgan. Yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun muhim vositalardan biridir. ESG fondlari barqaror kompaniyalarga investitsiya kiritish orqali ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni oshiradi. Yashil investitsiyalar uzoq muddatli foyda va kam xavf bilan tavsiflanadi. Ular qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishslash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantiradi. Yashil aksiyalar investorlarni ekologik jihatdan barqaror bizneslarga jalb etadi. Bu investitsiyalar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Yashil vechur kapitali innovatsion ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishga yordam beradi. Umuman olganda yashil investitsiyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashil fondlar ham kapital bozorining muhim instrumenti bo'lib, ular yashil investitsiyalarni jalb qilishda yordam beradi. Yashil fondlar orqali investorlar o'z investitsiyalarini ekologik mas'uliyatli loyihalarga yo'naltirishi mumkin. ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari ham kapital bozorining muhim qismini tashkil etadi, chunki ular investitsiyalarning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini baholash imkonini beradi. ESG asosida yaratilgan fondlar va moliyaviy vositalar, investorlar uchun barqaror va yashil loyihalarga investitsiya kiritish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, yashil kreditlar va yashil investitsiya jamg'armalari kapital bozorining samarali instrumentlari hisoblanadi. Yashil kreditlar orqali banklar va moliyaviy institutlar ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishi mumkin. Yashil investitsiya jamg'armalari esa uzoq muddatli ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar yaratadi. Kapital bozorida yashil investitsiyalarni rag'batlantirish uchun hukumatlar tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va subsidiyalar ham muhim instrumentlardir. Bu imtiyozlar ekologik loyihalarga jalb qilishni osonlashtiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Yashil investitsiya vositalari va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro tashkilotlar ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliya tashkilotlari, masalan, Juhon banki, yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali global miqyosda barqaror rivojlanishga hissa qo'shami. Yashil kapital bozori orqali ekologik xavflarni baholash va ularni moliyaviy jihatdan tahlil qilish mumkin, bu esa yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtiradi. Kapital bozorining moliyaviy instrumentlari, jumladan, yashil obligatsiyalar, fondlar va kreditlar, ekologik rivojlanish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'ladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kapital bozorining moliyaviy instrumentlarini takomillashtirish, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Kapital bozorida mavjud bo'lgan barcha yashil moliyaviy vositalar, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ularni yashil loyihalarga

investitsiya kiritishga undaydi. Shunday qilib, kapital bozorining moliyaviy instrumentlari yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ajralmas rol o'ynaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda kapital bozorining ahamiyatini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirish uchun muhimdir. Birinchi navbatda, yashil obligatsiyalarни rivojlantirish va kengaytirish orqali kapital bozorini ekologik loyihalarga jalg qilish zarur. Yashil obligatsiyalar investorlarga iqlimni himoya qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi. Kapital bozorida yashil fondlar va yashil investitsiya vositalarini yaratish orqali ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shiladi. ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlarini joriy etish, kapital bozorida yashil loyihalarning ahamiyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Davlatlar tomonidan yashil iqtisodiyotga o'tish uchun rag'batlantirish mexanizmlarini taklif etish, masalan, yashil kreditlar va soliq imtiyozlari, investorlarni jalg qilishga yordam beradi. Moliyaviy institutlar va banklar yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashda faol ishtiroy etishlari lozim, bu esa kapital bozorining yashil iqtisodiyotga moslashishiga yordam beradi. Yashil investitsiyalarни rivojlantirish uchun yangi moliyaviy asboblarni yaratish, masalan, yashil investitsiya jamg'armalari, kapital bozorining samaradorligini oshiradi. Kapital bozorida yashil aktivlarni yaratish va ularni kengaytirish, investorlar uchun uzoq muddatli foyda taqdim etishga yordam beradi. Bu esa yashil iqtisodiyotga o'tishning tezlashishiga turtki bo'ladi. Moliya institutlarining ekologik xavflarni baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, yashil loyihalar uchun investitsiyalarini jalg qilishda muhim ahamiyatga ega.



**3-rasm. Yashil obligatsiyalar turlarining xalqaro yashil obligatsiyalar bozoridagi ulushi, 2023 (twajda, 2024)**

2023-yilda xalqaro yashil obligatsiyalar bozorida yashil obligatsiya turlarining ulushi sezilarli farq qilgan (3-rasm). Korporativ yashil obligatsiyalar 30% ulush bilan eng katta hissaga ega bo'lgan. Moliyaviy institutlar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar 28% ni tashkil etgan. Suveren yashil obligatsiyalar ulushi 25% ga teng bo'ldi. Agentliklar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar 8% ulushga ega bo'lgan. Munitsipal obligatsiyalar jami 6% ni tashkil etgan. Xalqaro obligatsiyalar esa atigi 3% ulushga ega bo'lgan. Korporativ sektor yashil moliyalashtirishda yetakchilik qildi. Hukumatlarning roli ham muhim ahamiyat kasb etdi. Moliyaviy institutlar yashil obligatsiyalarini aktiv ravishda sotib oldi. Yashil obligatsiyalar bozori barqaror rivojlanishda muhim rol o'ynamoqda.

### Xulosa va takliflar.

Kapital bozori ishtirokchilarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi rolini o'rganish asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan:

Birinchidan, yashil obligatsiyalar, ko'k obligatsiyalar kabi yashil moliyaviy instrumentlar amaliyotini kengaytirish lozim. Kapital bozorida mazkur yashil moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish orqali atrof-muhitga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish va kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi;

Ikkinchidan, ESG (Environmental, Social, Governance) bo'yicha kapital bozoridagi investitsiyalarni va barqaror kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish zarur. Kapital bozori orqali ESG tamoyillariga asoslangan korxonalarga investitsiyalar jalb qilish ularga imtiyozli sharoitlar yaratish va ularni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi;

Uchinchidan, yashil kompaniyalarning fond bozoriga chiqishini rag'batlantirishga e'tibor qaratish lozim. Yashil iqtisodiyotga o'tishda ekologik tamoyillarga amal qiluvchi kompaniyalar va startaplarni kapital bozoriga integratsiyalash orqali ularning moliyaviy resurslarga ega bo'lishiga erishish mumkin;

To'rtinchidan, xalqaro kapital bozorlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq. Global yashil investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tezlashtiriladi va barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanadi.

### *Adabiyotlar /Литерапия/Reference:*

Batrancea, Larissa, et al. (2021) *An empirical investigation on the transition process toward a green economy. Sustainability* 13.23 13151.

Erkinov D., Kadirov U. (2023) *Yashil iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari.* // Scholar, Vol. 1, issue 13.

Liu, Nana, et al. (2020) *Examining the coordination between green finance and green economy aiming for sustainable development: A case study of China.* *Sustainability* 12.9 3717.

Naqvi, Bushra, et al. (2023) *Financial market development: a potentiatting policy choice for the green transition in G7 economies.* *International Review of Financial Analysis* 87, 102577.

Ning, Yiyi, et al. (2023) *Green bond as a new determinant of sustainable green financing, energy efficiency investment, and economic growth: a global perspective.* *Environmental Science and Pollution Research* 30.22 61324-61339.

Raxmonqulova N. (2024) *Yashil iqtisodiyotga o'tish orqali milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish masalalari.* // *International Journal of Economy and Innovation, Gospodarka i Innowacje, Volume 54.*

Sartzetakis, Eftichios S. (2021) *Green bonds as an instrument to finance low carbon transition.* *Economic Change and Restructuring* 54.3 755-779.

Söderholm, Patrik. (2020) *The green economy transition: the challenges of technological change for sustainability.* *Sustainable Earth* 3.16.

BNPP (2024). *Sovereign green bonds – Bigger, stronger, and more diverse in 2024 – EN.* [online] BNPP AM Slovakia professional investor. Available at: <https://www.bnpparibas-am.com/en-sk/professional-investor/portfolio-perspectives/sovereign-green-bonds-bigger-stronger-and-more-diverse-in-2024/>.

Yan, Juan, and Haroon. (2023) *Financing efficiency in natural resource markets mobilizing private and public capital for a green recovery.* *Resources Policy* 85 103841.

Zhao, Linhai, et al. (2022) *Enhancing green economic recovery through green bonds financing and energy efficiency investments.* *Economic Analysis and Policy* 76 488-501.